



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|--|
| 1. B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|---|
| 1. M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

XALQ MAQOLLARIDA RANG SIMVOLIKASI

M.Y. Ro'ziyeva,

BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq maqollaridagi ramziy timsoliy xususiyatlar tahlil qilingan. Ranglar adabiyot va folklorda ramz sifatida poetik fikrni ifodalash, obraz yaratish, chuqur ma'no yuklash vositasi sifatida faol xizmat qilishi ularning o'z va ko'chma ma'nolari, poetic vazifalari misollar orqali ko'rsatilgan.

Аннотация. В статье анализируются символические особенности народных пословиц. На примерах, раскрывается активное символическое значение цветов в литературе и фольклоре, их способность выражать поэтическую мысль, создавать образы и наполнять глубоким смыслом, а также их поэтические функции.

Abstract. This article analyzes the symbolic features of folk proverbs. The fact that colors actively serve as symbols in literature and folklore as a means of expressing poetic thought, creating images, and imbuing deep meaning is shown through examples, their inherent and transferable meanings, and poetic functions.

Folklorshunoslikda har bir asar ijrosi bir adabiy fakt sifatida, o'ziga xos variant ekanligini his etish, adabiy faktning qurilishi, semantikasi, tarixiy asoslarini, tadrijiy bosqichlarini, bevosita ijrochi va tinlovchi auditoriyasi bilan bog'lab talqin etishni anglatish muhim hisoblanadi. Folklorning an'analar san'ati ekanligini, epik bilim va epik qoliplarining folklor ijrosi, baxshilik san'atidagi o'rnini o'rganish dolzarb masalardan biridir. Hozirgi zamon jahon folklorshunosligida xalq og'zaki ijodi asarlarining ramziy mohiyatini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ranglarga oid ramzlar orqali folklor janrlarining mifopoetik asoslarini, ularning milliy ma'naviy qadriyatlar tizimi shakllanishidagi o'rnini aniqlashga oid izlanishlar dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ranglar insoniyat tafakkurining eng qadimiy qatlamlariga borib taqaluvchi timsollar bo'lib, ular orqali urf-odatlar, diniy e'tiqodlar, ruhiy kechinmalar va poetik tafakkur taraqqiyoti namoyon bo'ladi. Shu bois rang ramzlarini tahlil etish nafaqat badiiy-estetik, balki ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni ham yoritishda alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat og'zaki ijod namunalari bu maqollar bo'lib, o'zbek tilida - maqol, tojiklarda - zarbulmasal, ruslarda - poslovitsa, arablarda (jonli so'zlashuvda) - naql, turklarda - ata so'zi atamasi bilan yuritiladi. Maqol atamsi arabcha [قَوْل] – qavlun – gapirmoq, aytmog so'zidan olingan bo'lib u og'zaki ijodning eng faol janri hisoblanadi.[3.89] Xalq maqollarining mazmun ko'lamini inson hayotining turli sohalarini qamraydi. Inson hayotidagi voqea-hodisalarning cheki yo'q ekan, maqollar mazmuni chegarasini ham o'lchab bo'lmaydi. Maishiy hayotdagi kichik bir e'tiborga arzimaydigandek ko'rinuvchi lavhadan tortib chuqur falsafiy mushohada ifodasigacha maqollar mazmunida o'z aksini topgan.

O'zbek xalq maqollarining badiiy jihatdan mukammalligi taniqli olimlar va shoir, yozuvchilar tomonidan tan olingan. Bu jihatdan maqollar so'z san'atining oliy namunasi sifatida baholanishga loyiq. Hajm jihatdan kichikligi, mazmunan serma'noligi, mavzu jihatdan hayotiyliqi maqollarning asrlar davomida og'izdan og'izga o'tib yashashini ta'minlagan omillardir. Professor T.Mirzayev ta'kidlaganlaridek, "Har biri tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir"[1.3].

Ayni choqda badiiy go'zallikning bevosita so'z tanlash, tasvir vositalaridan unumli foydalanish jihatlari ham bor. Maqollar so'z san'ati mahsuli sifatida o'z ma'nosida, ko'chma ma'noda va har ikkala ma'noda qo'llanishi mumkin. Shuning uchun ularda badiiy-tasviriy

vositalarning xilma-xil shakllariga duch kelamiz. Xususan, xalq maqollari tarkibida rang ifodalovchi soʻzlarning oʻlab maʼno qirralari, badiiy tasvir vositalari, poetik koʻchimlarining barcha namunalarini hosil qilganini uchratish mumkin. Ular nafaqat badiiy-tasvir vositalarini yaratishda, xizmat qilgan, balki xalqning obrazli tafakkurida aniq bir semantik yukni koʻrsatish vazifasini ham bajargan.

Jumladan, “Igʻvogarga oq sut ham qora”[1.32] maqolida oq sut xalq konseptosferasida eng muqaddas, ona mehrini ifodalovchi ramz. Bu maqolda oqning ijobiy semasi igʻvogar nigohida salbiy rang — qoraga aylanadi. Bunda konnotativ inversiya kuzatiladi: qadrli narsa ham yovuz niyatli odam uchun qimmatini yoʻqotadi. Rangning bu maqoldagi poetik funktsiya — inson idrokining maʼnaviy koʻrligini ochish demak.

Yana bir maqolda “Oq tangang ortiq boʻlsa, qora kuningga saqla”[1.186] maqolida ham ranglar binar oppozitsiya asosida ishlatilgan. Oq tanga — xalq tilida halol mehnat bilan topilgan, barakali, pok mablagʻ ramzi. Oq rangning bu konnotatsiyasi — tozalik, halollik, baraka semalarini oʻz ichiga oladi. Qora kun — metaforik ifodada mashaqqat, sinov, yoʻqchilik davri timsoli. Qora rang xalq konseptosferasida koʻpincha salbiy jarayonlar, yoʻqotishlar, qaygʻu bilan bogʻlanadi.

Bu maqolda oq va qora ranglar semantik jihatdan metonimiyaga asoslangan: “oq tanga” → boylik, “qora kun” → qiyinchilik davri boʻlib iqtisodiy ehtiyotkorlik, kelajakni oldindan koʻra bilish gʻoyasini rang timsollari orqali kuchaytirish. poetik funksiyasini bajargan. Tahlillardan koʻrinadiki, bu maqol rang obrazining pragmatik-didaktik vazifasini namoyon etadi: oq rang motivatsiya beradi, qora rang esa ogohlantiradi. Bu esa rang ramziyliklarining folklorda kommunikativ xususiyat ifodalashini isbotlaydi.

Maqollarda koʻpincha obrazli fikrlash vositasi sifatida ranglar keng qoʻllanadi. Ranglar insoniyat tafakkurida qadimdan muayyan ramziy maʼnolar bilan bogʻlangan boʻlib, ular ijtimoiy hayot, axloqiy qarashlar va estetik tushunchalarning ifodasi boʻlib xizmat qiladi. Ushbu bobda oʻzbek xalq maqollarida uchraydigan asosiy ranglar (oq, qora, qizil, koʻk, yashil, sariq)ning ramziy maʼnolari tahlil qilinadi va tasniflanadi.

Yana baʼzi bir maqollarda esa rang ramzining ambivalent xarakterini koʻrsatganini koʻrish mumkin. “Qizil tilim boʻlmasa, qishlar edim elimda” yo “Qizil tilim tiyolmadim, qizimnikiga borolmadim” [4.43] Bu maqollarda qizil til — xalq iborasida nodonlik, noʻnoqlik, gapga usta til maʼnosida ishlatiladi. Qizil rangning bu yerda ramziy yuklamasi xomlik, shoshqaloqlik, yoshlik qilib oʻylamay gapirish bilan bogʻliq. Bu metafora xalq ongida nutqning inson hayotidagi rolini kuchaytiradi.

Birinchi jumlada “qizil til” boʻlishi — odamning el ichida sharmanda boʻlib, qiyin vaziyatda qolganligi, shunday boʻlmasa (ramziy “qish” — sovuq, muhitning qattiqligi) ilqlik topishi mumkinligini bildiradi. Ikkinchi jumlada esa “qizil tilni tiyolmaslik” — yaʼni, haddan oshgan gap, oʻzini tuta olmaslik oqibatida muhim ijtimoiy imkoniyatdan (“qizimnikiga borolmadim”) mahrum boʻlish tasvirlangan. Maqol poetik tuzilmasi — antitezaga qurilgan: birinchi qism ijobiy shartni (qizil til boʻlish), ikkinchi qism esa salbiy oqibatni (uni tiyolmaslik) ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, ranglar adabiyot va folklorda ramz sifatida poetik fikrni ifodalash, obraz yaratish, chuqur maʼno yuklash vositasi sifatida faol xizmat qiladi. Ularning har bir kontekstda turlicha semantik yuklamasi, obrazga xizmat qiluvchi funktsiyasi mavjud boʻlib, bu jarayonning oʻzi ramziy tafakkur, poetik ifoda va estetik qabul mexanizmlarini chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Shu jihatdan ranglar xalq maqollarida nafaqat estetik bezak, balki milliy tafakkur, eʼtiqod va ijtimoiy qadriyatlarning koʻzgusidir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Mirzaev T. Oʻzbek xalq maqollari.- Toshkent: Sharq, 2012.
2. Roʻziyeva M. Oʻzbek folklorida rang simvolikasi. T., Fan, 2017
3. Safarov O. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi. Darslik. T., “Musiqqa”, 2011
4. Suvonqulova. X. Oʻzbek xalq maqollari. “Adabiyot uchqunlari”, Toshkent. 2014.